




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**MOLIYA HUQUQI FANIDAN**

**O‘QUV DASTURI (SILLABUS)**

<b>Bilim sohasi:</b>	100000 – Ta‘lim
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	110000 - Ta‘lim
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	60112100 – Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi

**Chirchiq – 2024**

O'quv dasturi (sillabus) Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashining 2024-yil " 27.06 "dagi 19-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:**

**O.T.Berkinov** CHDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini o'qituvchisi

**A.A.Yo'ldashev** CHDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**M.S. Boltayev** Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi kafedrasini professor, yu.f.d. (DSc)

**N.A. Nazarov** CHDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini professori, f.f.d.

O'quv dasturi (sillabus) Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasining 202\_ yil " 27.06 "dagi 24 - sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilindi.

**Kafedra mudiri:**



**G.G. G'afarova**

O'quv dasturi (sillabus) Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti kengashining 202\_ yil " 28.06 "dagi 12-sonli majlisida muhokamadan o'tkazilgan.

**Fakultet dekani:**



**R.A. Ikramov**

## O'QUV DASTURI (SILLABUS)



Gumanitar fanlar  
fakulteti

60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

### Umumiy ma'lumotlar

<b>Fan nomi:</b> Moliya huquqi		
<b>Fan kodi:</b> Law 6344	<b>Kredit miqdori:</b> 4	<b>Semestr:</b> 6
<b>Kafedra nomi:</b> Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi		
<b>Fan o'qituvchilari:</b> O.T.Berkinov		
<b>Email:</b> oybekberkinov98@gmail.com		
<b>Fan turi:</b> Tanlov		
<b>Ta'lim shakli:</b>	Kunduzgi	
<b>Baholash shakli:</b>	Imtihon	
<b>Fan tili:</b>	O'zbek	

### Fanning qisqacha mazmuni

“Moliya huquqi” fani mustaqil O'zbekistonning moliya huquqi mazmuniga bag'ishlanadi. U o'z ichiga asosiy moliyaviy-huquqiy tushunchalarni, kategoriyalarni, moliyaviy nazorat, budjet huquqi, davlat daromadlari va harajatlarining huquqiy rejimi, soliq huquqi, bank faoliyati, pul muomalasi, hisob-kitoblar va valyuta operatsiyalari bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi amaldagi moliyaviy qonunchilikni o'quv materiallari, ma'ruza, seminar va yozma topshiriqlar orqali o'rganiladi.

### Ta'lim natijalari:

#### Kursni tugatgan talabalar:

- Moliya huquqining asosiy nazariy jihatlarini egallash;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi moliyaviy qonunchilik tizimini tushunish va qo'llay olish;
- Moliyaviy qonunchilikni amalga oshirilishi ustidan tashkiliy-huquqiy nazoratni ta'minlash;
- Moliya huquqi normalarini qidirish va qo'llash usullari o'rganish;
- Moliya huquqining o'ziga xos atamalari va manbalaridan foydalanish;
- Og'zaki nutq qobiliyati va ritorikani rivojlantirish.

**Kurs natijasiga ko'ra ega bo'ladigan kompetensiyalar (KK):**

- olingan bilimlardan real hayotda qo'llash, masalan, budget, soliq, bank, valyuta va hisob-kitob operatsiyalaridagi nizolarni hal qilishda qatnashish;
- Tadqiqot, keysni tahlil qilish va sharhlashning amaliy ko'nikmalari;
- Keyslarni tahlil qilish va hal etish, huquqiy pozitsiyani shakllantirish va protsessual hujjatlarni tayyorlash;
- Qonun hujjatlari bilan ishlash (xalqaro va milliy), moliyaviy huquqiy masalalarga oid ilmiy adabiyotlar va tahlil materiallarni tushunish;
- Axborot bilan ishlash (turli manbalardan ilmiy va kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni izlash, baholash va foydalanish, shu bilan birga tizimli yondoshuv);
- Yuridik, qiyosiy va boshqa o'ziga xos metoddan foydalangan holda, tegishli huquqqa oid ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish va ishlash;
- Kelajakdagi kasbiy faoliyatida talabalar my.gov.uz; advice.uz; e-maktab.uz; ish.mehnat.uz; argos.uz kabi platformalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar(KK-1);
- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadi (KK-4).

**Fan mazmuni****Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)**

<b>M1</b>	Moliya huquqining predmeti va metodlari
<b>M2</b>	Moliya huquqining tizimi va manbalari
<b>M3</b>	Moliyaviy-huquqiy normalar
<b>M4</b>	Moliyaviy huquqiy munosabatlar
<b>M5</b>	O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat
<b>M6</b>	O'zbekiston Respublikasi byudjet tuzilishi
<b>M7</b>	Byudjetni tartibga solish va byudjet jarayoni
<b>M8</b>	Davlat daromadlari va harajatlarining huquqiy tartibi
<b>Oraliq nazorat</b>	
<b>M9</b>	Davlat krediti tizimi
<b>M10</b>	Soliq tizimi
<b>M11</b>	Soliq va soliqdan tashqari to'lovlarni yig'ish tartibi
<b>M12</b>	Sug'urta tizimi
<b>M13</b>	Bank tizimi
<b>M14</b>	Pul muomalasining huquqiy tartibi
<b>M15</b>	Valyuta tizimi
<b>Mashg'ulotlar shakli: Seminar(S)</b>	
<b>S1</b>	Moliya huquqining predmeti va metodlari
<b>S2</b>	Moliya huquqining tizimi va manbalari
<b>S3</b>	Moliyaviy-huquqiy normalar

S4	Moliyaviy huquqiy munosabatlar
S5	O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat
S6	O'zbekiston Respublikasi byudjet tuzilishi
S7	Byudjetni tartibga solish va byudjet jarayoni
S8	Davlat daromadlari va harajatlarining huquqiy tartibi
S9	Davlat krediti tizimi
S10	Soliq tizimi
S11	Soliq va soliqdan tashqari to'lovlarni yig'ish tartibi
S12	Sug'urta tizimi
S13	Bank tizimi
S14	Pul muomalasining huquqiy tartibi
S15	Valyuta tizimi

### O'qitish va o'rganish usullari

“Moliya huquqi” fani talabalarni moliyaviy-huquqiy muammolar yuzasidan tashkil etiladigan turli ilmiy va ilmiy amaliy konferensiyalar, davra suhbatlarida qatnashishga tayyorlash uchun platforma ham sanaladi. Darslar individual va jamoaviy vazifalarning uyg'unligi asosida, nazariy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulot tarzida tashkil etilgan. Mazkur fan moliya huquqi sohasidagi huquqiy bilimlarini chuqurlashtirishni o'ziga maqsad qilgan milliy va xorijiy talabalar uchun foydali bo'ladi.

Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat
Ma'ruza	30
Seminar	30
Mustaqil ta'lim	60
Talabalarning jami o'quv va o'qitish soatlari	120

### Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari

Talabalar bilimlarini nazorat qilish va baholash talabaning faolligi, oraliq nazorat, yakuniy nazorat hamda mustaqil ta'limni baholash orqali amalga oshiriladi.

Talabalar bilimi quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qarorlar qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, fan(mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, ifodalay oladi, aytib beradi va fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fan(mavzu)ning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

• **Joriy nazorat** – talabaning seminar darslar davomida berilgan topshiriqlarni bajarib borganligi bilan baholanadi. **Umumiy baholashning 30%(30 ball).**

• **Oraliq nazorat** – bu professor-o‘qituvchi tomonidan talabaning modulning birinchi qismi bo‘yicha olgan bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini baholashning muhim bosqichi bo‘lib, kelajakda shu fan bo‘yicha o‘zlashtirishni prognoz qilish ko‘rsatkichidir. Oraliq nazoratda talabalar bilimini baholash og‘zaki savol-javob va yozma ish orqali amalga oshiriladi. Talaba oraliq nazoratdan o‘tmagan taqdirda unga yana 2 marta qayta topshirish imkoni beriladi. **Umumiy baholashning 20 %(20 ball).**

• **Mustaqil ta’limni baholash** – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi. **Umumiy baholashning 30 % (30 ball).**




• **Yakuniy nazorat** - bu professor-o‘qituvchi tomonidan talabaning kurs bo‘yicha olgan bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini baholashning umumlashtiruvchi bosqichi hisoblanadi. Yakuniy nazorat yozma yoki og‘zaki shaklida o‘tkaziladi. **Umumiy baholashning 30 % (30 ball).**






Baholash, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari (vazifalari) kurs professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi, oldindan moderatsiyadan o‘tkaziladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Nazorat turlarini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o‘zlashtirishini xolis, shaffof va aniq baholashga imkon berishi kerak.

Talaba akademik huquqbuzarlikka (qoidabuzarlik) olib keladigan har qanday harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Masalan, plagiat, o‘zaro kelishib olish, natijalarni qalbakilashtrish, imtihon jarayonida qoidabuzarlik, ya’ni konspekt va shpargakalardan, telefon va boshqa aloqa vositalaridan foydalanishi, imtihon olinadigan xonaning ichida yoki tashqarisida boshqalar bilan muloqot qilishi ta’qiqlanadi. Bunda aybdor talabalar nazorat yoki imtihon jarayonidan chetlashtiriladi to‘plagan bali yoki bahosi nolga aylantiriladi.

Fan (kurs) xususiyatlaridan kelib chiqib baholash va nazorat qilish mezonlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Asosiy adabiyotlar		
1.	Финансовое право Республики Узбекистан. Учебник. - Ташкент "NISO POLIGRAF", 2022. 278 б	
2.	Ли А. Ўзбекистон Республикаси молия ҳуқуқи. Дарслик. - Тошкент: ТДҮОИ, 2006. - 460 б.	
3.	Хожиев Е. Банк ҳуқуқи. Дарслик. -Тошкент: ТДҮОИ, 2011. -272 б	

4.	Ли А. Финансовое и банковское право Республики Узбекистан: Учебник. – Т.: Издательство ТГЮУ, 2020. – 245 с.	
<b>Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar</b>		
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 19.03.2020 y., 06/20/5968/0331-son	
2.	Ли А. Узбекистон Республикаси молия ҳуқуқи. Юридик олий ўқув юртлари учун дарслик. - Т.: Ташкент Давлат юридик институти, 2004. – 398 б.	
3.	Ayupov R.H. Blokcheyn texnologilari. Darslik. - Т.: TMI “O‘znashr”, 2019. 306 б.	
4.	Isayeva F. Soliq huquqi. Darslik.-Toshkent: TDYU, 2017 -270 б.	

#### Internet manzillari

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. <http://ziyonet.uz>
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. [www.espi.uz](http://www.espi.uz)